

## MUZEY AVLODLARNI BOG'LOVCHI KO'PRIK

Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi

Adabiyot bo'limi ilmiy hodimi:

**H.Yuldasheva**

Muzey – Avlodlarni Bog'lovchi Ko'prik Muzeylar insoniyat madaniyatidagi eng qadimiy va eng muhim ma'rifat maskanlaridan biri sanaladi. Ular orqali xalqlar o'z tarixini, madaniy merosini, turmush tarzini va yutuqlarini keyingi avlodlarga uzatib keladi. Shuning uchun ham muzeylar faqat eksponatlar jamlangan joy emas, balki o'tmish, bugun va ertangi kunni bog'laydigan katta ko'prik vazifasini bajaradi. Muzeylarning ahamiyati va vazifalari Muzeylarga tashrif buyurgan inson, go'yo vaqt mashinasiga kirgandek bo'ladi.

Har bir eksponat – bu tarixning tirik guvohi, o'z zamonidan bizgacha yetib kelgan ma'naviy xotiradir. Misol uchun, qadimgi sopol buyumlar o'sha davrdagi hunarmandchilik darajasini, qadimiy qurollar esa ajdodlarimizning turmush tarzi va harbiy madaniyatini namoyon etadi. Qo'lyozmalar, san'at asarlari, numizmatika to'plamlari, arxeologik topilmalar – bularning barchasi o'z tarixini so'zlaydi. Muzeylarning eng katta vazifalaridan biri – milliy o'zlikni anglashga xizmat qilishidir. Yoshlar muzeylarda o'z ajdodlari yaratgan merosni ko'rib, ularga nisbatan hurmat va g'urur tuyg'usini rivojlantiradi. Bu esa kelajak avlodning ma'naviy yetuk bo'lib voyaga yetishida muhim omildir. Ma'naviy tarbiya markazi sifatida Bugungi kunda muzeylar yildan-yilga yangilanib, zamonaviy texnologiyalar bilan boyib bormoqda. Interaktiv ekspozitsiyalar, elektron qo'llanmalar, 3D rekonstruksiya yoshlarning qiziqishini yanada oshiradi. Bu nafaqat ko'rish, balki eshitish, o'rganish, tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Muzeylar maktab o'quvchilari va talabalarning ta'lim jarayonida katta o'rin egallaydi. Darsliklarda berilgan ma'lumotlar muzeyda ko'rgazmali ravishda namoyon bo'lganda, bilim yanada mustahkam bo'ladi. Shuning uchun muzeylar bejizga “Aqlli insonlar maktabi” deb atalmaydi. Ilmiy tadqiqot o'chog'i Muzeylar faqat eksponatlar saqlanadigan joy emas, balki ilmiy izlanishlar olib boriladigan markazamdir. Arxeologlar,

etnograflar, tarixchilar va san'atshunoslar muzey fondlarida ilmiy tadqiqotlar olib boradi. Ko'plab yangi ilmiy kashfiyotlar aynan muzeylar saqlagan topilmalar orqali yuzaga kelgan. Bundan tashqari, muzeylar: eksponatlarni restavratsiya qiladi; ularni kelajak uchun saqlaydi; ilmiy kataloglar yaratadi; xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etadi. Bu jarayonlar esa muzeylarning nafaqat mahalliy, balki jahon madaniy merosiga ham xizmat qilayotganini ko'rsatadi. O'tmish va kelajakni bog'lovchi ko'priklar Har bir muzey o'zida tarixni jamlasa-da, aslida insonning kelajakka bo'lgan e'tiborini oshiradi. Undagi har bir buyum: "Ajdodlaring shunday yaratgan, endi sen nima yaratishing mumkin?" degan savolni qo'yadi. Muzeylar bizga quyidagilarni eslatadi: O'tmishsiz kelajak bo'lmaydi. Merosni asrash – burch va mas'uliyatdir. Tarixni bilgan xalq hech qachon yo'qolmaydi. Shu bois muzeylar – nafaqat eksponatlar saqlanadigan joy, balki avlodlarni birlashtiradigan, millat xotirasini asraydigan, kelajakni mustahkamlaydigan bebaho maskandir.

Muzeylar – bu shunchaki eksponatlar saqlanadigan bino emas, balki butun bir xalqning tarixiy tafakkuri, ma'naviyati va o'zligini mujassam etgan tirik xotiradir. Ular o'tmish merosini nafaqat saqlaydi, balki uni qayta talqin qiladi, zamonaviy avlodga tushunarli tarzda yetkazadi. Shu bilan birga, muzeylar jamiyatning madaniy rivojlanish darajasini aks ettiradi: qaysi xalq o'z muzeylariga e'tiborli bo'lsa, o'sha xalq o'z tarixiga hurmat bilan qaraydi va kelajagini mustahkam poydevor ustiga quradi. Bugungi globallashtirish davrida madaniyatlar aralashib borayotgan bir paytda, muzeylar milliy qadriyatlarni yo'qolib ketishdan asraydigan eng ishonchli mustahkam qal'adir. Ular yoshlar ongiga "kim edik, kim bo'ldik va kim bo'lishimiz mumkin" degan muhim savollarni singdiradi. Har bir eksponat, har bir yodgorlik bizni o'z ildizlarimizga qaytaradi, o'tmishni unutmaslikka, kelajakni ongli ravishda qurishga undaydi.

Evropada tarix muzeylari dastlab XVI-XVII asrlarda paydo bulgan. Bu davrda Evropada kapitalistik ishlab chikarish rivoj topa boshlagan, shu bilan birgalikda ilm-fan, madaniyat, san'at, texnika xam rivojlanib borayotgan edi. SHuningdek buyuk geografik kashfiyotlar, Kopernik kashfiyotlari xam bu davr odamlarini urta asr dunyo karashidan voz

kechib, yangi davr, yangi dunyo karash, yangi falsafa tomon yuzlanishga olib borayotgan edi. Mana shu juda yirik ilmiy, ruxiy uygonish davrida ilmiy va boshka umumiy e'tiyotlar turli kolleksiyalarni paydo bulishiga olib keldi. Ular aloxida olimlarning kolleksiyasi, "tabiatshunoslar kabineti", "nodir buyumlar kamerasi" kabi turli xil kolleksiyalar edi. Davr utishi bilan bu kolektsiyalap sistemalashib, ixtisoslashib bordi va tarixiy madaniy boyliklar kolleksiyasi, turli xil xarbiy kurol-arslaxalar, san`at asarlari kolleksiyasi kabi kolleksiyalar ajralib chikdi. Tarixiy muzeylarning rivojlanishidagi navbatdagi muxim kadam XVIII asrning ikkinchi yarmida kuyildi. Bu davrda kapitalistik jarayonlar keng rivoj topib, Evropa xayotida katta progressiv ro'l o'ynayotgan edi. Aynan shu davrdagi manbalarni tuplash va sistemalarini dastlbki umumiy koidalari paydo buldi va shu tarika muzey faoliyati ilmiy xarakter kasb eta boshladi.

Muzey kolleksiyalari ilmiy tadjikotlarga katta kuch bera boshladi, ular uchun tadjik etish manbaiga aylana boshladi. Muzeylar tarixiy -madaniy, ilmiy boyliklar kurikxonasiga, texnika yutuklari xazinasiga aylanib bordi. SHuningdek muzeylar burjuaziyani ma`naviy-ruxiy oziqlantirishdan, xalqning milliy gururini oshiradigan, uning urf-odatlar va tili, madaniyatini saklaydigan va paydo bulgan milliy burjuaga kuvvat beruvchi kuchga aylanib bordi, ularning milliy ozodlik kurashida muxim urin egalladi. Aynan shu tarika Vengriya milliy muzeyi(1802), Praga milliy muzeyi (1818) va Berlindagi kadimiy muzey (1828) lar paydo buldi.

Germaniyada muzeylarning rivojlanib borishiga kuprok Napoleon istilosiga karshi olib borilgan milliy-ozodlik kurashi katta yordam berdi. Aynan 19-asrning 20-yillarda Germaniya shaxarlarida kuplab muzeylar paydo buldi.

Rossiyada dastlabki muzeylarni paydo bulishi Petr I nomi bilan boglik bulsa, XIX asrda ular soni kupayib va ixtisoslashtib bordi. Misol uchun antik davr arxeologiyasiga oid 1811 yili Feodosiyada, 1825 yili Odessada, 1826 yilda Kerchda muzeylar ochilgan bulsa, XVIII asrdayok paydo bulgan xarbiy-tarix muzeylari kengayib, 1805 yili - Dengiz muzeyi, 1811 yili Interdant muzeylari va kelajakdagi Artilleriya tarixi muzeyi asosi paydo buldi.

XIX asrning 2-yarmida keng profildagi milliy muzeylar ochish xarakati kuchaydi. Buning asosida arxeologiya, etnografiya fanlarining rivojlanishi yotar edi. Ular uz kolleksiya va ilmiy tadqiqotlarini 1845 yili tuzilgan Geografiya jamiyatida tuplar edilar. Arxeologik kolleksiyalar asosida 1872 yili Rossiya tarixi muzeyi ochildi.

2. Oktyabr` tuntarishidan keyin xokimiyatni egallab turgan bol`sheviklar xukumati muzeylarga jiddiy e`tibor berdi. 1917 yil noyabrdayok Xalk maorifi komissarligi "rossiya ishchilar, dexkonlar, soldatlar, matros va barcha fukarolarga" murojaat bilan chikib, barcha tarixiy milliy kiymatga ega bulgan boyliklarni saklash va tuplashga chakiradi va ularni xaklning mulki deb e`lon kildi. 1918 yil fevralidayok muzey ishi rivojiga bag`ishlangan butun Rossiya konferentsiyasi bulib utdi. 1917-1923 yillardayok 270 ta tarixiy muzey ochildi. Sobik ittifokning markaz va respublikalardagi umumittifok, respublika va regional axamiyatga molik muzeylar paydo buldi. Sobik SSSRda utgan asrning 80-yillarida mavjud bulgan 2208 tarixiy muzeyning 1359 tasi tarixiy va tarix bulimiga ega bulgan ulkashunoslik muzeylari edi.

Garchi yukorida ta`kidlangan rakamlar dabdabali bulsada, aslida axvol butunlay boshkacha edi. Slbik mustamlaka tuzumi muzeylardan kuyidagi maksadda foydalandi.

1. Oktyabr` tuntarishidan keyingi dastlabki yillarda burjua madaniyati va mulki sifatida juda kup nodir tarixiy madaniy boyliklar muzeylarga topshirish baxonasida tortib olindi va talon-taroj kilindi.

2. 20-30 yillarda esa muzeylar tortib olingan, talon-tarojdan omon kolgan nodir buyumlar, san`at asarlari chet el valyutasini tuplash maksadida chet elga sotildi. Demak, aslida ular kapitalistik jamiyatga xos bulgan kapital jamgarish vazifasini bajardi.

3. Muzeylar kommunistik mafkurani xalk ongiga singdirish, xalkning uz ildizlaridan uzoklashtirish, ularni kommunistik mashinani oddiy bir mexanizmiga aylantirish uchun xizmat kildi.

4. Barcha respublikalardagi muzeylar rus shovinizmi bilan sugorildi va aslida ruslashtirish siyosatiga moslandi.

3. Tarixiy muzeylar quyidagi ijtimoiy vazifani bajaradi:

1. Ilmiy-xujjatlash va kuriklash-saklash vazifasi.

2. Ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish vazifasi.

"Muzey ishini rivoji uslubiy jihatdan ilmiy tadqiq etish.

"Muzey predmetlarini manba sifatida tadqiq etish.

3. Ta'lim-tarbiyaviy ishlarini olib borish vazifasi.

4. Muzeylar uz ixtisoslashuviga kura quyidagilarga bulinadi:

1. Tarixiy muzey - ba'zasida tarixiy fanlar mavjud bulgan barcha muzeylar, keng profildagi tarixiy, arxeologik, etnografik, muizmatik, xarbiy-tarixiy, iktisodiy-tarixi, ta'lim-tarbiya tarixi, maxsus tarixiy muzeylar (misol uchun sport) kiradi.

2. Badiiy muzeylar - san'at va sanatshunoslik xarakteriga ega bulgan barcha muzeylar; misol uchun tasviriy san'at muzeyi.

3. Maxsus tarixiy muzeylar - faoliyati maxsus fanlar doirasidagi muzeylar; biologik, botanik, zoologik, geologik, ekologik.

4. Texnika muzeyi - texnika fanlarga bogliq muzeylar; sanoat, politexnik, avtotransport, aloka va boshkalar.

5. Adabiyot muzeyi - yozuvchilar xayoti va faoliyatiga doir bulgan adabiyot rivojlanishiga karatilgan barcha muzeylar.

6. Kompleks muzeylar - ikki yoki undan kup soxaga ixtisoslashgan muzeylar.

Tayanch iboralar: Tabiatshunoslar kabinet, nodir buyumlar kamerasi, ilmiy xujjatlash, muzey ishini uslubiy tadbik etish..

Shu bilan birga, muzeylar jamiyatni ma'naviy birlikda saqlashga xizmat qiladi. Ularning eshiklari turli yoshdagi, turli kasbdagi, turli dunyoqarashdagi insonlar uchun

ochiq. Ammo barchasini birlashtiruvchi umumiy tamoyil bor: tarixga hurmat va merosga e'tibor. Bu tamoyil esa jamiyatning barqarorligi va ma'naviy taraqqiyoti uchun eng zarur asosdir. Demak, muzeylar avlodlarni bog'lovchi ko'prik bo'libgina qolmay, balki ularga yo'l ko'rsatuvchi ma'naviy chiroq, xalqning o'zini anglashiga xizmat qiluvchi buyuk maktabdir. Ularni asrash, rivojlantirish va yoshlar ongiga singdirish – har birimizning burchimizdir. Chunki tarixiga suyanmagan xalq kelajagini ham mustahkam qura olmaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Muzeylar to'g'risida”gi Qonun. O'zbekiston Respublikasi, 2017.
2. UNESCO: Museum Documentation Standards. Paris, 2018.
3. Rasulov M. “Muzey hujjatlari va arxiv ishi”. – Zarafshon, 2021.
4. Qodirova S. Ekspонатlarni ilmiy pasportlashtirish tamoyillari”. – Toshkent, 2022.
5. Milliy muzey ichki nizomi, 2023.
6. “Muzeylarda raqamlashtirish bo'yicha metodik tavsiyalar”. – 2021.